

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)
ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)

YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
O'RINOV A.A. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)
ORIPOV A. (O'zbekiston)

Muharrir:

Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'ozi.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,
2022.**

O.Shukurov	
Neym neologizmlar xususida	244
G'.Abduvaxobov	
Amaliy tilshunoslik: elektron lug'atlar yaratish konsepsiysi.....	250
N.Maxmudova	
Ornitonimlarning qiyosiy tahlili: o'zbek va ingliz tillarida qush nomlari bilan bog'liq birliklarning ishlatalishi.....	257
H.Davlatova	
Bolalarning aqli va nutqi rivojlanishida oilaning ta'siri.....	262
V.Abdurahmonov	
Alternativ so'roq gaplarning uslubiy-semantic tasnifi.....	267
F.Temirova	
Badiiy diskurs va diskursiv tahlil	271
A.Mirzaev	
Ko`p tillilik va uning yangi tilni o`rganishga ta'siri	276

PEDAGOGIKA

B.Khodjaev, B.Baydjanov	
Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarni zararli axborotlar tahdididan himoya qilishning pedagogik asoslari va muammolari.....	280

ILMIY AXBOROT

M.Abdukamolova	
Yangi O'zbekiston: xotin-qizlar maqomi	288
P.Ro'ziboeva	
"Gilam paypoq" va "Onamning yolg'onlari" hikoyalarida ona obrazining o'xhash va farqli jihatlari	292
Sh.Uralova	
O'zbek va ingliz tilshunosligida idish-tovoq va oshxonanomlari tadqiqot obyekti sifatida.....	295

FANIMIZ FIDOVYLARI

Ilimga baxshida umr	302
Sermaksul ilmiy ijod	303
Bibliografiya	305

YANGI O'ZBEKISTON: XOTIN-QIZLAR MAQOMI**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН: СТАТУС ЖЕНЩИН****NEW UZBEKISTAN: WOMEN'S STATUS****Abdukamolova Mohlaroy¹****¹Abdukamolova Mohlaroy**

FarDU magistranti.

Annotatsiya

Mazkur maqolada mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ular uchun munosib mehnat va turmush sharoitini yaratib berish, qobiliyat va salohiyatini ro'yobga chiqarish, ijtimoiy-siyosiy mavqeい va nufuzini ko'tarishning huquqiy jihatlari, ularni ijtimoiy himoya etishdagi qonunchilikning rivojlanishi kabi yo'nalishlar tahlil etilgan.

Аннотация

В данной статье анализируются правовые аспекты обеспечения прав и интересов женщин и девочек в нашей стране, создания для них подходящих условий труда и жизни, реализации их способностей и потенциала, повышения их социально-политического статуса и престижа, развития законодательства в области их социальной защиты.

Abstract

This article analyzes the legal aspects of ensuring the rights and interests of women and girls in our country, creating suitable working and living conditions for them, realization of their abilities and potential, raising their socio-political status and prestige, development of legislation in their social protection.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, demokratik davlat, fuqarolik jamiyati, jamiyat va davlat boshqaruvi, innovatsion g'oyalar, ijtimoiy soha, xotin-qizlar, ayollar o'rni va mavqeい.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, демократическое государство, гражданское общество, общество и государственное управление, инновационные идеи, социальная сфера, женщины, роль и статус женщин.

Keywords: new Uzbekistan, Democratic state, civil society, society and public administration, innovative ideas, social sphere, women's, women's role and status.

KIRISH

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-madaniy islohotlar Respublikamizda milliy demokratik taraqqiyotni ta'minlashga, mamlakatimizni modernizatsiyalab, uni rivojlangan davlatlar darajasiga ko'tarishga qaratilgandir. Ijtimoiy taraqqiyotning ushbu immanent qonuni amalga oshirilayotgan islohotlarga bosh-qosh bo'layotgan davlatni, uning boshqaruv tizimlarini xalqning kuch-qudratiga, tashabbusiga, qo'llab-quvvatlashiga tayanishga chorlaydi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-son Farmonidagi O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha "2017–2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi"ning to'rtinch'i yo'nalishi: "Ijtimoiy sohani rivojlantirish"da qayd etilgan "xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini oshirish" bandiga binoan, davlat boshqaruv tizimida xotin-qizlar faoliyatini yanada kuchaytirish orqali aholining farovonligini oshirish, sog'ligini saqlash uchun qilinayotgan barcha harakatlar, bu borada o'z navbatida, oila va jamiyatda xotin-qizlar faoliyatini mustahkamlashda keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilayotganligi muhim ahamiyatga ega[2]. Jumladan, Prezidentimizning SH.Mirziyoyev: "Ayolni e'zozlash – ezgulik vaadolat mezoni", degan g'oyani hayotga tatbiq etish maqsadida aholimizning qariyb yarmini tashkil etadigan ayollarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash, xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va nufuzini oshirish, iste'dodi va qobiliyatini ro'yobga chiqarish, onalik va bolalikni himoya qilish davlat siyosatining markaziga qo'yildi"[1,53], degan so'zlari juda ahamiyatlidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Xotin-qizlarining mamlakat hayotidagi faoliyati bo'yicha dunyoning ko'plab yetakchi ilmiy tadqiqot va oliy ta'lif muassasalarida xotin-qizlarning to'laqonli ishtirokini ta'minlashi uchun zarur bo'lgan ko'plab muhim muammolar aniqlangan. Bu borada samarali muhim ilmiy natijalar olingan, jumladan, turli xalqlar va xilma-xil millatlar xotin-qizlarining mamlakat hayotida faoliyoti va mavqeini mustahkamlanishiga oid liberal qonunlar qabul qilganligi va xotin-qizlar ichki hayotining ayrim sohalarida qatnashish imkoniyatiga ega bo'lganliklari ochib berilgan.

ILMIY AXBOROT

O'zbekiston davlat boshqaruvi tizimida xotin-qizlar faoliyatining ijtimoiy-falsafiy masalalari davlat siyosati darajasida o'rganayotgan "O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi" (O'zbekiston), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi (O'zbekiston), O'zbekiston "Olma" xotin-qizlar uyushmasi (O'zbekiston), O'zbekiston "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazi (O'zbekiston), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi (O'zbekiston) tomonidan sezilarli natijalarga erishilmogda.

Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o'rnii va roli bilan bog'liq muammolarni tahlil qilish, ularning aniq yechimini ishlab chiqish nazariy va amaliy jihatdan ahamiyat kasb etadi. Ayni shu ma'noda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy mavqeini yuksaltirish jihatlari mamlakatimizda D.Alimova, O.Musurmonova, S.Rashidova, E.Sultonova, G.Tansiqboeva, T.Egamberdieva kabi olimlar tomonidan yoritilgan asar va maqolalarda O'zbekiston xotin-qizlarining ijtimoiy-siyosiy mavqeい va nufuzini ko'tarishning huquqiy jihatlari, ularni ijtimoiy himoya etishdagi qonunchilikning rivojlanishi kabi yo'nalishlar tahlil etilgan[4.16-17; 5; 6.17-23; 7; 8.17-34; 9].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Davlat boshqaruvi ijtimoiy-siyosiy faoliyat turi hisoblanadi. Boshqaruv jarayoniga aralashgan, kishilarning xatti-harakatlarini tashkil etishni o'z zimmasiga olgan har bir sub'ekt: inson, shaxs, guruh ijtimoiy-siyosiy hayotga taalluqli bo'lgan vazifalar bilan shug'ullanadi. Demak, davlat boshqaruvi bilan shug'ullanuvchi subyekt aniq ijtimoiy-siyosiy hayotni, jarayonlarni tashkil etuvchi, yo'lga qo'yuvchi va boshqaruvchidir.

Boshqarish sub'ekti sifatida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda paydo bo'lishi "ayollar masalasi"ga retrospektiv nazar tashlashni taqozo qiladi.

Ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning kelgusi bosqichlarida ijtimoiy hayotning sub'ekti sifatida ayolga bo'lgan munosabatlarda o'zgarishlar, hatto ayol va erkakni bir-biriga antagonist sifatida qarshi qo'yuvchi ta'limotlar paydo bo'ladi. Ayolning ijtimoiy-siyosiy borliqni yaratuvchi, boshqaruvchi qobiliyatga, kuchga ega ekanini shubha ostiga oluvchi qarashlar hanuzgacha mavjud, shu bois "ayollar masalasi" taraqqiyparvar, demokratik kuchlar diqqatini tortmoqda.

Xotin-qizlarning davlat boshqaruvi tizimida sub'ekti sifatida faoliyat yuritishi ijtimoiy-siyosiy institutlar oldidagi funktsiyalar bilan chambarchas bog'liqidir. Ayollar davlat boshqaruvi tizimida qatnashar ekan, eng avvalo, ushbu tizimning funktional xususiyatlaridan, ularni bajarish texnologiyasidan yaxshi xabardor bo'lishlari shart.

Demokratik davlatning bosh printsipi insonga xizmat qilish ekan, u shubhasiz, barcha ob'ektlar ehtiyojlari va talablarini hisobga olishga majbur. Demak, xotin-qizlar ob'ekt sifatida ham, inson sifatida ham boshqaruv oldiga o'z talab va ehtiyojlarni qo'yadi, ularning qondirilishini istaydi. Bu esa, ularning ob'ekt sifatida davlat boshqaruvi tizimiga ma'lum bir vazifalar qo'yishiga zamin yaratadi, ya'ni ular o'z funktsiyalarini boshqaruv tizimiga olib kiradi. Bizning fikrimizcha, mazkur vazifalar ayollarning quyidagi ijtimoiy va demografik holatini ifoda etuvchi, ulardan kelib chiquvchi funktsiyalardan iboratdir:

- Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy huquqlarini ta'minlash.
- Oilada gender tenglikni qaror toptirish, diskriminatsiyaga qarshi kurash.
- Davlat va jamiyat ishlarini boshqarishga ayollarni kengroq jalb etish.
- Boshqaruv tizimini takomillashtirishga ko'maklashish.
- Fuqarolik institutlarining rivojlanishiga erishish.
- Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar uyushtirish orqali yosh avlodni tarbiyalashga o'z hissasini qo'shish.

Ko'rinib turibdiki, ushbu funktsiyalar bilan xotin-qizlar davlat boshqaruvi tizimiga ijtimoiy vazifalarni to'la bajarish borasida yordam beradi, hatto uning ayrim funktsiyalarini o'z zimmasiga oladi.

Ijtimoiy-siyosiy hayotning, davlat boshqaruvining polifunktional voqeligi, murakkabligi ayollarning ijtimoiy xislatlariga ma'lum bir talablar qo'yadi, chunki duch kelgan ob'ekt, kishi davlat boshqaruvini o'z zimmasiga ololmaydi, uni muvaffaqiyatli bajarolmaydi, buning uchun u nafaqat shaxsiy (individual), shuningdek, ijtimoiy (sotsial) belgilarga, xislatlarga ega bo'lishi shart. Bu borada ilmiy adabiyotlarda, hatto ayollarning davlat boshqaruvidagi muammolarini maxsus o'rgangan olimlar asarlarida ham biror tavsiya uchramaydi. To'g'ri, yuridik fanlari nomzodi S.A.Xodjayevaning nomzodlik dissertatsiyasida ayollarning ijtimoiy-huquqiy faolligini, fazilatlarini aniqlashga qaratilgan nazariy portret yaratishga harakat qilingan. Unga ko'ra, ayollarning ijtimoiy-huquqiy faolligi, ularning: shaxsiy, ijtimoiy, ijtimoiy-huquqiy sifatlari orqali belgilanishi, aynan ushbu belgililar zamonaviy faol ayollar portretini tashkil etishi ko'rsatiladi[11.19-20].

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, falsafa fanlari doktori, professor X.O.Shayxovanning fikricha, ayollarning ijtimoiy hayotdagi o'rnini oshirish, jamiyat va davlat ishlarini

boshqarishga jalg qilish ularning ma'naviy kamolotiga xizmat qiladi. Ma'naviy qadriyatlarsiz jamiyat va davlatni boshqarib bo'lmaydi[12].

Ayollar davlat boshqaruvi tizimida subyekt (ob'ekt) sifatida qatnashar ekan, ular eng avvalo, qaysi sohaga moyil, qaysi sohaga oid bilim va tajribaga ega ekanini bilim va tajribaning psixologik ifodasi bo'lgan "moyillik" tushunchasi orqali o'rganish talab etiladi. "Moyillik" tushunchasi bilan bilim va tajriba o'rtasida farqlar mavjud, kishi u yoki bu vazifani, lavozimni egallashga moyil bo'lsa-da, istasa-da, uni kerakli saviyada amalga oshirolmasisligi mumkin. Biroq kishiga uning ko'ngli, dili moyil bo'limgan vazifani, lavozimni berish boshqaruvning samarali bo'lismiga olib kelmaydi. Agar kishi vazifa, lavozim dilidagi, ko'nglidagi narsa ekanini bilsa, u sohaga oid bilimini ham, tajribasini ham oshiradi[3.35-37].

Mustaqillik yillarda xotin-qizlarni ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar jarayoniga jalg etish, davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiyalashni keng ko'lamda amalga oshirish ob'ektiv zaruriyatga aylandi. 1995 yil 2 martda O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi davlat va jamiyat qurilishida ayollarning rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi[13]. Ushbu ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega hujjat ijtimoiy-falsafada ayollar masalasini yangi davr, milliy demokratik taraqqiyot nuqtai nazaridan o'rganishga turki va dastur bo'ldi. 1998 yil 27 yanvarda esa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi xotin-qizlar masalasiga oid Davlat dasturini ishlab chiqdi va Milliy platformasini e'lon qildi. Mazkur hujjat O'zbekistonda ayollar masalasiga jahonda yuz berayotgan global o'zgarishlar, BMTning, xalqaro tashkilotlarning ayollarga oid platformalari nuqtai nazaridan yondashishni kun tartibiga qo'ydi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlар, me'yorlar va tajribalarga tayanish ilmiy tadqiqotlarning vazifasi sifatida belgilandi. Bu vazifa hamon dolzarb bo'lib qolmoqda, buni davlatimiz rahbari SH.M.Mirziyoyev tomonidan 2018 yil 2 fevralda qabul qilgan "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni[14], 2021 yil 5 martda PQ-5020-son "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori ham tasdiqlaydi[15].

Huquqiy demokratik davlat qurilishining asosiy talablaridan kelib chiqqan holda, 2019 yil 2 sentyabrь kuni O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquqlar va teng imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinganligi mamlakatimizda mazkur sohada tizimli ishlar amalga oshirilayotganligining isbotidir.

Ushbu hujjat ayollar va erkaklarning jamiyat va davlat boshqaruvida teng ishtirok etishini, ularning sog'liqni saqlash, ta'lim, fan, madaniyat, mehnat va ijtimoiy himoya sohalarida, shuningdek, davlat va ijtimoiy hayotning boshqa jabhalarida teng huquq va imkoniyatlarini kafolatlaydi.

Shuningdek, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalariga 2020 yilda yo'llagan navbatdagi Murojaatnomasida O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha ustuvor yo'nalish va vazifalar belgilab olindi.

Davlat rahbari davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning o'rni va mavqeini yanada mustahkamlash – islohotlarimizning eng ustuvor yo'nalishlaridan birigi ekanligini ta'kidladi. SHuningdek, kasaba uyushmalari federatsiyasi boshchiligidagi mutasaddi idoralar, banklar va hokimliklar joylarda uyma-uy yurib, 6 milliondan ortiq xotin-qizlarning muammolarini puxta o'rganilganligi bildirildi.

2019 yil dekabrb oyida Oliy Majlisga va mahalliy kengashlarga o'tkazilgan saylov natijalariga ko'ra, ayol deputatlar soni Qonunchilik palatasi deputatlari umumiyl sonining 32 foizini, ayol senatorlar esa Senat a'zolarining 25 foizini, mahalliy Kengashlarda esa xotin-qizlar ulushi 25.6 foizni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston parlamenti jahondagi 190 ta parlament orasida 44-o'rinni egalladi.

Bundan tashqari, ayollarning bandigini ta'minlash, ularning o'z intilish va qobiliyatlarini to'laqonli ro'yobga chiqara olishlari uchun imkoniyatlarni kengaytirish masalasi davlatimizning doimiy diqqat markazida. Jumladan, davlat boshqaruvida xotin-qizlar ishtirokini oshirish maqsadida 6 mingdan ziyod faol xotin-qizlardan iborat kadrlar zahirasi shakllantirildi. Hozirgi kunda ularni turli rahbarlik lavozimlariga tayyorlash bo'yicha tizimli o'quvlar tashkil etilmoqda[10].

Prezidentimiz o'z Murojaatnomasida ayollarning o'rni va mavqeini yanada oshirishga e'tibor qaratish kerakligi yuzasidan bir qancha takliflarni ilgari surdi. Faol va tashabbuskor opa-singillarimizdan iborat Respublika Xotin-qizlar jamoatchilik kengashining tashkil etilishi, ayollarning biznes-loyihalarini qo'llab-quvvatlash, Oliy Majlis palatalari va hukumat tomonidan xotin-qizlarning jamiyatdagagi va davlat boshqaruvidagi mavqeini yanada oshirishga qaratilgan yaxlit tizim yaratish bo'yicha taklif ishlab chiqilishi shular jumlasidandir. Zero, prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning o'rni va mavqeini yanada mustahkamlash – islohotlarimizning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolaveradi" [1.249].

ILMIY AXBOROT

Mamlakatimiz xotin-qizlarining innovatsion g'oyalari, ta'lif va iqtisodiyotning turli tarmoqlarida mehnat qilayotgan xotin-qizlarning amalga oshirayotgan loyihalari samaradorligini oshirishda davlatning o'rni va e'tibori juda katta ahamiyat kasb etadi[16].

XULOSA

Mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, munosib mehnat va turmush sharoiti yaratish, salohiyatini ro'yobga chiqarish, kuchli fuqarolik jamiyatini shakkantirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston ayollari davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etmoqda, ularning oiladagi mavqeい mustahkamlanmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy yo'naltirilgan siyosat xotin-qizlarimizga chinakam baxtli yashashlari uchun, ularning huquq hamda erkinliklarni ta'minlash, intellektual va ma'naviy yuksalishi, kasbiy hamda oilaviy majburiyatlarni hamohang tarzda bajarishi uchun zarur imkoniyatlar yaratmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Mirziyoyev SH.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2021. (Мирзиёев Ш.М. Новая стратегия Узбекистана. - Ташкент: Издательство «Узбекистан»)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947-sون Farmoni. –Toshkent: Adolat, 2018. (Указ Президента Республики Узбекистан № ПФ-4947 от 7 февраля 2017 года «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан». - Ташкент: Правосудие)
3. Adair D.J. Psixologiya vlasti // Kontseptsiya neprerekаемого liderstva. – M.: EKSMO, 2004. (Адэр Д.Дж. Психология власти // Концепция непрекращающегося лидерства. - М.: ЭКСМО)
4. Alimova D. O'zbekiston ijtimoiy fanlarda xotin-qizlar muammolarining o'rganilishi va vazifalari // O'zbekistonda oila, davlat va jamiyat qurilishida ayollarning roli va gender muammolari. – Toshkent: Fan, T.: 1999. (Алимова Д. Изучение и проблемы женщин в социальных науках Узбекистана // Роль и гендерные проблемы женщин в построении семьи, государства и общества в Узбекистане. – Ташкент)
5. Musurmonova O., Abdurahimova F. Mahallada qizlarning sog'lom turmush tarzi. – Toshkent: O'zbekiston, 2008. (Мусурмонова О., Абдурахимова Ф. Здоровый образ жизни девушек по соседству. - Ташкент: Узбекистан)
6. Rashidova S.SH. O'zbekistonda xotin-qizlarning ahvolini yaxshilash muammolari // O'zbekistonda "Gender va rivojlanish". 1999 yil 2-son. (Рашидова С.Ш. Проблемы улучшения положения женщин в Узбекистане // Гендер и развитие в Узбекистане)
7. Sultonova E. Ayol davlatning rivojlanish strategiyasida (Global muammo sifatida): Siyos. fan. d-ri. ... avtoref. – Toshkent, 2005. (Султанова Е. Женщины в стратегии развития государства (как глобальная проблема): Политика. поклонник. д-ри. ... автореф. – Ташкент)
8. Tansiqboyeva G.M. Jençina: yeyo prava i svobody, problemy, puti resheniya. // Jençina – pravo – obyestvo. – Toshkent: TGYul, 1999. (Тансикбоева Г.М. Женщины: права и свободы, проблемы, пути решения. // Женщина – право – общество. – Ташкент: ТГЮЛ, 1999.)
9. Egamberdiyeva T.E. O'zbekiston Respublikasi ma'naviy hayatida ayollar faoliyigini oshirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari: Pedagog. fan. dok... diss. avtoref. – Toshkent, 2005. (Эгамбердиева Т.Э. Социально-педагогические основы повышения активности женщин в духовной жизни Республики Узбекистан: Педагог. поклонник. док... дисс. автореф. – Ташкент)
10. Xalq so'zi gazetasi. 12 noyabr 2020 yil. (газета «Народное слово».)
11. Xodjaeva C.A. Pravovaya kultura i problemy razvitiya sotsialno-pravovoy aktivnosti zhennin Respublikani Uzbekistan (istoriko - pravovoz issledovaniy): Avtoref. dis... kand. yurid.nauk. –Toshkent, 2003. (Ходжаева С.А. O'zbekiston Respublikasida xotin-qizlarning huquqiy madaniyati va ijtimoiy-huquqiy faoliyigini rivojlantirish muammolari (tarixiy-huquqiy tadqiqot): Dissertatsiya avtoreferati. dis... samimi. huquqshunoslik –Toshkent)
12. Shayxova X. Ma'naviyat – kamolot ko'zgusi. – Toshkent: G'ulom 2009. (Шайхова Х. Духовность – зеркало совершенства. - Ташкент: Г. Гулом.)
13. <https://lex.uz/docs/> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 02.03.1995 yildagi PF-1084-sон. (Указ Президента Республики Узбекистан № ПФ-1084 от 2 марта 1995 г.)
14. <https://lex.uz/docs/O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni>, 02.02.2018 yildagi PF-5325-sон. (Постановление Президента Республики Узбекистан, ПФ-5325 от 02.02.2018 г.)
15. <https://lex.uz/docs/O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori>, 05.03.2021 yildagi PQ-5020-sон. (Постановление Президента Республики Узбекистан от 05.03.2021 №PQ-5020.)
16. <https://uza.uz/uz/> Davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning o'rni hamda mavqeい yanada mustahkamlanadi. (Роль и статус женщин в правительстве и обществе будут укрепляться)